



XALQ DEPUTATLARI GULISTON TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 5-sentabr

VII-15-143-9-124-K/25

Guliston tumani

Guliston tumani hududidagi ma'muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy-hududiy tuzilishi to'g'risida"gi qonuni va Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-sonli qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "Ma'muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi to'g'risida"gi Nizom ijrosi yuzasidan hamda tuman hokimining 2025-yil 12-iyundagi 107-9-124-F/25-son farmoyishiga asosan, Respublika aerogeodeziya markazi tomonidan Sirdaryo viloyati Guliston tumanidagi ma'muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash ishlarining yakuniga ko'ra tumandagi shaharcha va qishloqlarning umumiy perimetri 345481 metr umumiy maydoni 34479,23 gektar ekanligi aniqlandi

Jumladan:

1. Dehqonobod shaharchasi umumiy perimetri 15516 metr, umumiy maydoni 562,10 gektar;
2. Beshbuloq qishlog'i umumiy perimetri 36802 metr, umumiy maydoni 3330,04 gektar;
3. Dehqonobod qishlog'i umumiy perimetri 41261 metr, umumiy maydoni 2003,48 gektar;
4. Humo qishlog'i umumiy perimetri 30781 metr, umumiy maydoni 4172,45 gektar;
5. Nurobod qishlog'i umumiy perimetri 39009 metr, umumiy maydoni 3287,68 gektar;
6. Oltin O'rda qishlog'i umumiy perimetri 29370 metr, umumiy maydoni 3639,02 gektar;
7. Oltintepa qishlog'i umumiy perimetri 25307 metr, umumiy maydoni 2884,32 gektar;
8. Sohilobod qishlog'i umumiy perimetri 24622 metr, umumiy maydoni 1799,57 gektar;
9. Soyibobod qishlog'i umumiy perimetri 28833 metr, umumiy maydoni 3557,52 gektar;
10. Zarbdor qishlog'i umumiy perimetri 29933 metr, umumiy maydoni 4074,53 gektar;
11. Chortoq qishlog'i umumiy perimetri 44047 metr, umumiy maydoni 5168,52 gektar;

Guliston tumani ma'muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilashda shaharcha va qishloqlar chegaralari ajratib ko'rsatilgan holda tavsiflandi. Chegaralar chizig'ining yozuvli matni tavsifida joyning tegishli topografik elementlari bilan bog'lanib, chegara nuqtalari o'rtasidagi masofasi va chegara chizig'ining qutb yo'nalishlari aks ettirildi. Chegara chizig'ining burilish nuqtalari koordinatalari ko'rsatildi.

Guliston tumani hududidagi ma'muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash yuzasidan Davlat kadastrlari palatasi Guliston tumani filiali bosh muhandisining axborotini tinglab, taqdim etilgan ma'lumotlar fikr va mulohazalarini hamda taklif va tavsiyalarini atroflicha o'rganib chiqib, "O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy-hududiy tuzilishi to'g'risida"gi Qonunning 10-moddasi hamda O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6- va 24-moddalariga asosan Xalq deputatlari tuman Kengashi

Q A R O R - Q I L A D I :

1. Davlat kadastrlari palatasining Guliston tumani filiali bosh muhandisi X.Kenjayeovning "Guliston tumanidagi ma'muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash to'g'risida"gi axboroti hamda Respublika aerogeodeziya markazi tomonidan Guliston tumanidagi shaharcha va qishloqlarning chegaralarini belgilash bo'yicha bajarilgan ishlarning yakuniy natijalarini ko'rib chiqish yuzasidan tuman hokimligida tuzilgan ishchi guruh tarkibining 2025-yilning 14-avgustidagi 1/02-287-sonli yig'ilish bayoni ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Guliston tumanidagi ma'muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash ishlari yakuniy natijalari to'g'risidagi ma'lumot 1-ilovaga hamda ma'muriy-hududiy birliklarning chegaralarini belgilash bo'yicha kartografik chizmasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Xalq deputatlari Sirdaryo viloyati Kengashining 2025-yil 23-iyul VII-17-131-9-0-K/25-sonli qaroriga asosan Guliston tumani Zarbdor qishlog'idan qisman 527,2 gektar yer uchastkasini Guliston shahri tarkibiga o'tkazilishi O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi Senatining qaroriga asosan o'zgartirish kiritilishi inobatga olinsin.

4. Tuman hokimligi Axborot xizmati (S.Erkinov)ga mazkur qarorni tuman hokimligining rasmiy veb-saytida yoritilishini ta'minlasin.

5. Ushbu qarorning tasdig'i Xalq deputatlari Sirdaryo viloyati Kengashidan so'ralsin.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari va tuman hokimining barcha o'rinbosarlari zimmalariga yuklatilsin.

Sessiya raisi



SHERANOV RAVSHAN
TURSUNOVICH

Xalq deputatlari Guliston tumani
Kengashining
2025-yil 5-sentabrdagi
VII-15-143-9-124-K/25 -son qaroriga
1-ilova

**Guliston tumanidagi ma'muriy-hududiy birliklar chegaralarini
belgilash ishlarining yakuniy natijalari to'g'risida**

M A ' L U M O T

T/r	Ma'muriy-hududiy birliklarning nomi	Umumiy perimetr (metr)	Umumiy maydoni (hektar)
1	Dehqonobod shaharchasi	15516	562,10
2	Beshbuloq qishlog'i	36802	3330,04
3	Dehqonobod qishlog'i	41261	2003,48
4	Humo qishlog'i	30781	4172,45
5	Nurobod qishlog'i	39009	3287,68
6	Oltin O'rda qishlog'i	29370	3639,02
7	Oltintepa qishlog'i	25307	2884,32
8	Sohilobod qishlog'i	24622	1799,57
9	Soyibobod qishlog'i	28833	3557,52
10	Chortoq qishlog'i	44047	5168,52
11	Zarbdor qishlog'i	29933	4074,53
	Jami	345481	34479,23
Guliston shahri tarkibiga o'tkazilayotgan yer uchastkasi			
11/¹	Zarbdor qishlog'idan qisman	18274	527,2
	Jami	363755	35006,43

Xalq deputatlari Guliston tumani Kengashining
2025-yil 5-sentabrdagi
VII-15-143-9-124-K/25 -son qaroriga
2-ilova

